



## SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

*i.f.d. prof. Jurayev Abdug'affor*  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0009-0008-1460-0548  
[abdugafforjuraev115@gmail.com](mailto:abdugafforjuraev115@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada soliqlarning iqtisodiy mohiyati hamda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni tadqiq etilgan. Soliqlarning iqtisodiy mazmuni, funksiyalari va soliq munosabatlarning nazariy asoslari mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, soliqlarning budjet daromadlarini ta'minlashdagi ahamiyati, davlat va soliq to'lovchilar manfaatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda soliq siyosatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash va soliq tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq, soliq munosabatlari, davlat budjeti, budjet daromadlari, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, fiskal siyosat.

## ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ НАЛОГОВ И ИХ РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ БЮДЖЕТНЫХ ДОХОДОВ

*д.э.н., проф. Джурсаев Абдугаффор*  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье исследованы экономическая сущность налогов и их роль в формировании доходов государственного бюджета. На основе научных взглядов отечественных и зарубежных ученых проанализированы экономическое содержание налогов, их функции и теоретические основы налоговых отношений. Также освещены значение налогов в обеспечении бюджетных доходов, взаимосвязь интересов государства и налогоплательщиков, а также вопросы совершенствования налоговой политики. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения, направленные на обеспечение стабильности бюджетных доходов и повышение эффективности налоговой системы.

**Ключевые слова:** налог, налоговые отношения, государственный бюджет, доходы бюджета, налоговая политика, налоговое администрирование, фискальная политика.

## ECONOMIC ESSENCE OF TAXES AND THEIR ROLE IN THE FORMATION OF BUDGET REVENUES

PhD, prof. **Jurayev Abdugaffor**  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** *This article examines the economic essence of taxes and their role in the formation of state budget revenues. The economic content of taxes, their functions, and the theoretical foundations of tax relations are analyzed based on the scientific views of domestic and foreign scholars. The study also highlights the importance of taxes in ensuring budget revenues, the interrelationship between the interests of the state and taxpayers, and issues related to improving tax policy. As a result of the research, scientific and practical recommendations aimed at ensuring the stability of budget revenues and enhancing the efficiency of the tax system have been developed.*

**Keywords:** *tax, tax relations, state budget, budget revenues, tax policy, tax administration, fiscal policy.*

### **Kirish.**

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan soliq tizimining rivojlanganlik darajasi va uning iqtisodiy jarayonlarga ta'siriga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri bo'lish bilan birga, iqtisodiyotni tartibga solish, investitsion faollikni rag'batlantirish hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashning muhim moliyaviy instrumenti hisoblanadi. Shu sababli soliq munosabatlarining nazariy asoslarini chuqur o'rganish va ularni takomillashtirish masalalari iqtisodiy fan oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va soliq yukini maqbullashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonlarda soliqlarning iqtisodiy mohiyatini, ularning takror ishlab chiqarish jarayonidagi o'rnini va iqtisodiy manfaatlar tizimi bilan bog'liqligini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda soliq kategoriyasining mazmuni, funksiyalari va iqtisodiy ahamiyati bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, soliq munosabatlarining iqtisodiy manfaatlar bilan uzviy bog'liqligi hamda ularning budjet daromadlarini shakllantirishdagi amaliy samaradorligi yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois mazkur maqolada soliq kategoriyasining nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini tahlil qilinib, ushbu yo'nalishda mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Soliqlar insoniyat taraqqiyoti davomida shakllangan va takomillashib borgan muhim iqtisodiy instrumentlardan biri hisoblanadi. Ular davlatning vujudga kelishi bilan birga paydo bo'lib, daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlashning asosiy vositasi sifatida amal qilib kelmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar nafaqat davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning muhim manbai, balki iqtisodiyotni tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning samarali vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning mohiyati va mazmuniga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Xususan, Alekseyenko (2002) soliqlarni bir tomondan qiymat taqsimotining elementi, ikkinchi tomondan esa davlat faoliyatini moliyalashtirish vositasi sifatida tavsiflaydi. Prudon (1998) esa soliqlarning mavjudligini davlat faoliyati bilan bevosita bog'lab, davlat va soliqlar o'rtasidagi uzviy aloqani ta'kidlaydi. Petti (1993), Smit (2007) va Rikardo (1955) kabi klassik iqtisodchilar soliqlarning fiskal ahamiyatini e'tirof etgan holda, ularni undirishda adolatlik va iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga rioya etish zarurligini asoslab berganlar.

Keyingi davr iqtisodiy tadqiqotlarida ham soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Nitti (1904) soliqlarni jamoaviy ehtiyojlarni moliyalashtirish uchun undiriladigan majburiy to'lov sifatida baholagan bo'lsa, Fridman (2006) ularni davlat foydasiga undiriladigan majburiy yig'imlar sifatida izohlaydi.

Mamlakatimiz qonunchiligida ham soliqlarning iqtisodiy va huquqiy mohiyati aniq belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga (2020) muvofiq, soliqlar davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga undiriladigan majburiy va beg'araz to'lovlar hisoblanadi. Mazkur ta'rif soliqlarning fiskal vazifasi bilan bir qatorda ularning davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi ahamiyatini ham ifodalaydi.

Fikrimizcha, soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ushbu munosabatlar orqali bir tomondan davlat budjeti daromadlari shakllantirilsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Shu sababli soliqlar budjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an'anaviy usullardan foydalanildi. Xorijiy va mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilarining soliq munosabatlariga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini o'rganish davlatning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki soliqlar davlatning o'z funksiyalarini amalga oshirishi, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishi hamda budjet daromadlarini shakllantirishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning asosiy manbasi hisoblanadi. Shu sababli soliqqa tortish tizimining shakllanishi va takomillashuvi davlat boshqaruvi tizimining rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq holda kechadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, soliq siyosati va davlat budjeti daromadlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Soliq stavkalarining haddan tashqari yuqori belgilanishi ayrim hollarda iqtisodiy faollikning pasayishiga va natijada budjet tushumlarining kamayishiga olib kelgan bo'lsa, maqbul soliq siyosatini yuritish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirib, budjet daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlagan. Shu jihatdan soliqlar davlatning fiskal manfaatlarini ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi muhim instrument sifatida ham namoyon bo'ladi.

Soliqlar iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy munosabatlarning murakkab tizimi sifatida turli nazariy yondashuvlar asosida talqin etiladi. Ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash uchun soliqlarni tarixiy, falsafiy, iqtisodiy, moliyaviy hamda siyosiy-huquqiy kategoriyalar kesimida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. 1-jadvalda soliqlarning mazkur kategoriyalar bo'yicha tavsifi va ularning asosiy xususiyatlari keltirilgan.

**Soliqlarning nazariy-iqtisodiy mazmunini ifodalovchi kategoriyalar tavsifi\***

Kategoriya	Mazmuni	Asosiy xususiyati	Soliqdagi namoyon bo'lish shakli
Tarixiy	Soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi	Davlat paydo bo'lishi bilan bog'liq	O'lpon, boj, xiroj va zamonaviy soliqlar
Falsafiy	Soliqlarning ijtimoiy mohiyati	Adolatlilik va manfaatlar uyg'unligi	Soliq adolati tamoyili
Iqtisodiy	YAIMni taqsimlash munosabatlari	Qayta taqsimlash vositasi	Daromad va foydadan undiriladigan soliqlar
Moliyaviy	Davlat pul fondlarini shakllantirish	Byudjet daromadlarining manbai	Soliq tushumlari
Siyosiy-huquqiy	Huquqiy me'yorlarga asoslanishi	Majburiylik va qonuniylik	Soliq kodeksi asosida undirish

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlarning obyektiv zarurati davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, erkin raqobat muhitining shakllanishi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning mustaqil faoliyat yuritishi bilan izohlanadi. Soliqlar orqali davlat iqtisodiy jarayonlarni tartibga soladi, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi hamda ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni shakllantiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda soliq munosabatlarini takomillashtirish va ularni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi investitsion jozibadorlikni oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, aholi farovonligini yuksaltirish hamda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli soliqlarning iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish va soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Soliqlar va soliq munosabatlarining amaliy jihatlarini tadqiq etish jarayonida ularning nazariy asoslarini chuqur o'rganish zarurati yuzaga keladi. Chunki soliq siyosatini samarali amalga oshirish, budjet daromadlarini barqaror shakllantirish hamda iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish ko'p jihatdan soliqlarning iqtisodiy mohiyati va funksiyalarini to'g'ri anglashga bog'liq. Shu sababli soliq munosabatlarining nazariy asoslarini tadqiq etish nafaqat ilmiy, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning mohiyati, funksiyalari va iqtisodiy jarayonlardagi o'rni yuzasidan turli qarashlar mavjud. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi fiskal ahamiyatiga ko'proq e'tibor qaratilib, ularning iqtisodiy manfaatlar tizimi, takror ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni hamda iqtisodiy rivojlanishga ta'siri yetarli darajada yoritilmagan. Natijada soliqlarning iqtisodiy mohiyatini kompleks baholashga doir ilmiy yondashuvlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Fikrimizcha, soliqlarning iqtisodiy mohiyatini faqat davlat budjeti daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida talqin qilish yetarli emas. Soliqlar davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi, investitsion faollikni rag'batlantiruvchi hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. Shu bois soliqlarning nazariy asoslarini chuqur o'rganish soliq siyosatini takomillashtirish va budjet daromadlari barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz byudjet daromadlariga soliqlarning tutgan o'rnini 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

**Davlat budjeti daromadlari tarkibida soliq tushumlari tarkibining tahlili, mlrd. so'mda**

Asosiy budjet parametrlari	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Davlat budjeti daromadlari	164799,4	202042,9	231721,3	274423,9	242753,2
Shu jumladan, Bevosita soliqlar	58930,4	64447,1	73103,6	90833,0	65700,0
Bilvosita soliqlar	56290,4	71390,2	88411,3	88342,1	98787,4
Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i	23036,4	23912,8	28079,5	36362,6	20308,4
Boshqa daromadlar va soliqsiz daromadlar	26543,4	42292,9	43766,8	58886,2	57957,5

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2021-2025 yillarda davlat byudjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlar muhim va barqaror manbalardan biri hisoblanadi.

Har qanday iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni orqali namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan soliqlar ham davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Soliqlarning mohiyatini chuqur anglash ularning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini to'g'ri baholash imkonini beradi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqlarning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va soliqqa tortish tamoyillari keng o'rganilgan bo'lsa-da, ayrim nazariy masalalar bo'yicha yagona ilmiy yondashuv shakllanmagan. Xususan, soliqlarning moliyaviy munosabatlar tizimidagi o'rni, ularning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro bog'liqligi hamda iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirishdagi roli yuzasidan turli qarashlar mavjud. Bu esa soliqlarning iqtisodiy mazmunini yanada chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlarning fiskal vazifasi bilan bir qatorda ularning tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi funksiyalari ham tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli soliqlarni faqat budjet daromadlarini shakllantirish manbai sifatida emas, balki iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, investitsion faollikni rag'batlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida ham baholash maqsadga muvofiqdir.

Soliq munosabatlari davlat, soliq to'lovchilar va boshqa iqtisodiy subyektlar o'rtasida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu munosabatlarning asosiy maqsadi davlat budjeti va boshqa markazlashgan moliyaviy fondlarni shakllantirish hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat. Shu jihatdan soliq munosabatlari iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Soliq munosabatlarining vujudga kelishi, avvalo, iqtisodiy manfaatlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Chunki har qanday iqtisodiy munosabatning asosida ma'lum bir manfaat yotadi. Soliq to'lovchilar uchun iqtisodiy manfaat tadbirkorlik faoliyatidan foyda olish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va mulkiy manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'lsa, davlat uchun ushbu munosabatlar budjet daromadlarini shakllantirish va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni moliyalashtirish imkonini yaratadi.

Shu sababli soliq munosabatlarini faqatgina budjetga majburiy to'lovlarni undirish jarayoni sifatida talqin qilish yetarli emas. Ular davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi moliyaviy mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Mazkur munosabatlarning samarali tashkil etilishi bir tomondan budjet daromadlari

barqarorligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, soliq munosabatlarining iqtisodiy mohiyati davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarining o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Aynan ushbu bog'liqlik soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi muhim o'rnini belgilab beradi hamda ularning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Soliq munosabatlarining mavjudligi davlat va soliq to'lovchilarning o'zaro iqtisodiy manfaatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Soliq to'lovchilarsiz davlatning budjet daromadlarini shakllantirish va o'z funksiyalarini amalga oshirishi mumkin emas. Chunki davlat ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarish, jamoat xizmatlarini moliyalashtirish hamda umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur moliyaviy resurslarni asosan soliqlar hisobidan shakllantiradi. Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlar ham o'z faoliyati natijasida daromad olish, ishlab chiqarishni kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdan manfaatdor bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, soliq munosabatlari faqatgina budjetga mablag'larni jalb etish mexanizmi emas, balki davlat va iqtisodiy subyektlar manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Soliqqa tortish jarayonida davlat budjet daromadlarini shakllantirishga erishsa, soliq to'lovchilar uchun qulay soliq muhiti va barqaror iqtisodiy sharoit yaratish imkoniyati vujudga keladi.

Fikrimizcha, soliqqa tortish tushunchasi soliq munosabatlariga nisbatan kengroq mazmunga ega bo'lib, u nafaqat budjet bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni, balki iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni ham qamrab oladi. Shu sababli soliqqa tortish tizimining samaradorligi davlatning fiskal manfaatlari va soliq to'lovchilarning iqtisodiy manfaatlari o'rtasidagi muvozanat darajasi bilan belgilanadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda soliqlarning mohiyati va funksiyalari keng yoritilgan bo'lsa-da, soliqqa tortish, soliq munosabatlari va soliq to'lovlari tushunchalarining o'zaro farqli jihatlari yetarli darajada ochib berilmagan. Vaholanki, ushbu tushunchalarning mazmunan farqlanishi soliqlarning iqtisodiy mohiyatini to'g'ri anglash va ularning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, soliqqa tortish iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u soliq munosabatlariga nisbatan kengroq mazmunga ega. Soliq munosabatlari soliqqa tortish jarayonining amaliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lsa, soliqqa tortishning o'zi davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi murakkab iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Shu jihatdan soliqqa tortishning nazariy asoslarini o'rganish soliqlarning iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, soliqlar iqtisodiy munosabatlar tizimida ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va davlat manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida vujudga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet daromadlarini shakllantirish zarurati ushbu munosabatlarning obyektiv asosini tashkil etadi. Shu sababli soliqlar alohida iqtisodiy subyektlarning xohish-istagidan qat'i nazar, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini moliyalashtirish va takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq anglash uchun ularning tarkibiy elementlari, funksiyalari va iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini kompleks tarzda o'rganish zarur. Chunki soliqlar nafaqat budjet daromadlarini shakllantirish vositasi, balki iqtisodiyotni tartibga solish, investitsion faollikni rag'batlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim instrumenti hisoblanadi.

Demak, soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali budjet daromadlarini shakllantirish hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi. Shu bois soliqlarni o'rganishda

ularning fiskal ahamiyati bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalariga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

### **Xulosa va takliflar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy moliyaviy manbalaridan biri bo'lib, ular orqali davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo'lib, ushbu munosabatlar budjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliqlarni faqat fiskal vosita sifatida talqin qilish ularning iqtisodiy mazmunini to'liq ochib bera olmasligi aniqlandi. Soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish, investitsion faollikni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag'batlantirish va iqtisodiy manfaatlar muvozanatini ta'minlashning muhim instrumenti hisoblanadi. Shu bois soliqlarning iqtisodiy mohiyatini baholashda ularning fiskal, tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi funksiyalarini kompleks tarzda hisobga olish zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

soliq siyosatini takomillashtirishda davlatning fiskal manfaatlari bilan soliq to'lovchilarning iqtisodiy manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga ustuvor ahamiyat berish;

soliq ma'murchiligini yanada raqamlashtirish orqali soliqlarni hisoblash va undirish samaradorligini oshirish;

iqtisodiyotning real sektorida investitsion faollikni rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlarini keng qo'llash;

soliq bazasini kengaytirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish orqali budjet daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash;

soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ularning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish soliq tizimi samaradorligini oshirish, davlat budjeti daromadlari barqarorligini mustahkamlash hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar / Литература / Reference:**

*Kodeks (2020) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son; 11.03.2020 y., 03/20/607/0279-son.*

*Адам Смит (2007) Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, – 960 с.*

*Алексеевко М.М. (2002) Налоги и налоговая политика государства. – Киев: Изд-во КНЕУ, – 320 с.*

*Давид Рикардо (1955) Начала политической экономии и налогового обложения. – М.: Госполитиздат, – 360 с.*

*Милтон Фридман (2006) Капитализм и свобода. – М.: Новое издательство, – 240 с.*

*Петти У. (1993) Трактат о налогах и сборах. – М.: Эконом-Ключ, -352 с.*

*Прудон П.Ж. (1998) Что такое собственность? Исследование о принципе права и власти. – М.: Республика, – 367 с. (асарда солиқ ва давлат молияси масалалари ҳам ёритилган).*

*Франческо Нитти (1904) Основные начала финансовой науки. – М.: Типография Т-ва И.Д. Сытина, – 623 с.*